



## TA'LIM TIZIMIDA KO'P TILLILIK

**Usmonxodjayeva Umida Xasan qizi**

*O'zbekiston jahon tillari Universiteti 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Hozirgi kunda axborot-texnologiyaning rivojlanishi nafaqat kompyuter sohasida, balki ta'lim tizimida ham sezilarli iz qoldirmoqda. Va ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar orqali ta'lim tizimiga kirib kelgan yangi tillarni qanday o'rganish haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *individual ko'p tillilik, interfaol platformalar, til ko'nikmalari, kommunikatsiya, til globallashuvi, ijtimoiy tarmoqlar, madaniy almashuv.*

Innovatsion texnologiyalarning kundan kunga rivojlanishi barcha sohalarga birdek ta'sir ko'rsatayotganligi hammamizga ma'lum. Va bu ta'lim sohasida ham yaqqol o'z isbotini topdi, ya'ni rivojlanayotgan axborot vositalaridan foydalanish nafaqat ta'limning sifatini, balki, unga bo'lgan ehtiyojlarni ham orttirib bormoqda. Ta'limga kiritilayotgan o'zgarishlar faqatgina axborot vositalardan foydalanishni emas, balki chet tillarni ham yaxshi o'zlashtirilishi kerak ekanligini talab qilmoqda. Ya'ni bu-axborot resurslaridan unumli foydalangan holda xorijiy tillarni mukammal o'rganish imkonini bermoqda va buning natijasida fanga "ko'p tillilik" tushunchasi kirib keldi. Ko'p tillilik-biror shaxs, jamiyat yoki muhitda bir nechta tillarning mavjudligi va qo'llanilishini anglatadi. Shuni ta'kidlash joizki, ko'p tillilik imo-ishora tillarini va hattoki har xil dialektlarni bilish holatini ham o'z ichiga oladi. Xorijlik mutaxassislar fikridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, ko'p tillilik bu murakkab va xilma-xil jihatlarga ega bo'lgan hodisadir. Va bu tushuncha turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin:

1. Madaniy almashuv-yangi tilni o'rganish: til almashtirish dasturlari, madaniy almashuvlar va xalqaro hamkorlikni targ'ib qiladi. Hamda til global muloqat ehtiyojlari va xilma-xilligi o'rtasidagi muvozanatni saqlab turuvchi vosita hisoblanadi

2. Ijtimoiy tarmoqlar-til o'rganish ilovalari, onlayn kurslar va ta'lim veb-saytlar kabi platformalar bir nechta tillarda ko'plab resurslarni taklif etadi. Bunday xilma-xil va interfaol resurslarning mavjudligi turli xil o'rganish uslublari va mos keladigan o'rganish tajribasini oshiradi.

### **Til o'rganishda interfaol platformalar:**

Hozirgi kunda axborot resurslarning rivojlanishi yangi tillarni o'rganishga oson yo'l ochib bermoqda. Chunki zamonaviy interfaol platformalar xorijiy tillarni qulay o'rganish imkonini bermoqda. Bu esa ta'lim tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, til o'rganish uchun mo'jallangan interfaol platformalar kundan kunga aholi orasida ommalashib bormoqda. Va bu shu kabi ilovalarning dunyo yuzini ko'rishi xorijiy tillarni rivojlanishiga asos bo'lmoqda. Chunki hozirgi kunda til



o'rganish uchun mo'jallangan platformalar orqali xohlagan xorijiy tilni oson yo'lda o'rganish mumkin. Ushbu platformalar turli xil ta'lim uslublariga mos keladigan interaktiv va immersiv o'rganish tajribasini yaratish uchun texnologiyalardan foydalanadi. Texnologiya tilni har qachongidan ham osonlashtirdi. Onlayn tarjima vositalari va til o'rganish ilovalari odamlarning til to'siqlari orqali muloqat qilishni osonlashtirdi. Bu nafaqat xalqaro muloqatni osonlashtirdi, balki til o'rganishni yanada qulay va inklyuziv qildi. Va hozir ba'zi mashhur interaktiv platformalar bilan tanishib chiqamiz:

1. **Duolingo**-bu turli tillarni o'rganish uchun mo'jallangan mashhur platforma. U foydalunuvchilarga interaktiv vazifalar orqali o'qish, yozish, gapirish va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. O'rganish jarayonini oson va qiziqarli qilish uchun turli xil metodlardan foydalanadi. Bugungi kunda 9.6 million aktiv foydalunuvchilarga ega eng mashhur va keng qo'laniladigan ilova hisoblanadi.

2. **Hello English**- bu ilova orqali til o'rganish jarayoni yanada interaktiv va qiziqarli bo'lishni boshlaydi, ya'ni bunda foydalunuvchi darajasiga qarab audio kitoblarni tinglashi, qiziqarli kontentga ega videolarni tomosha qilishi mumkin.

3. **FluentU**-ushbu ilova orqali dunyo bo'yicha eng ko'p tarqalgan tillardagi video suhbatlarni subtitr bilan ko'rish mumkin. Bu ilova ko'rib o'rganish qobiliyati (Audio-visual learners) kuchli o'rganuvchilar uchun bir qancha qulayliklarga ega.

Ta'lim tizimida yangi tillarni o'rganish madaniyatlar almashinuvi, jamiyatlar rivojlanishi hamda boshqa insonlarni tushunish uchun g'amxo'rlik qilish kabi xislatlarni uyg'otadi. Bir nechta tillarni bilgan odamlar odatda murakkab muammolarni yechuvchi kreativ bo'lishadi. Bundan tashqari til o'rganish orqali xotirani mustahkamlash hamda Altsgaymer va demants kabi xotira bilan bog'liq kasaliklar ta'siridan himoyalanih mumkin. Ta'lim tizimida ko'p tillilikni isloh qilish-dunyoni tashkil etadigan turli xil va aqlbovar qilmaydigan ko'plab madaniyat va tarixlarga kirish imkonini ochishga yordam beradigan ijodiy ilhom manbai hisoblanadi. Tillarni o'rganish va boshqa madaniyatlar bilan aloqada bo'lish dunyoga ko'proq ishonch va ochiq fikrga ega bo'lishga yordam beradi.

Chet tili o'qitish mazmuni tushunchasini mana bunday ta'riflash mumkin: muayyan mavzular doirasida chet til birliklarini qo'llab, nutq malakalarining shakllanishini ta'minlashga mo'ljallangan metodik hodisa. O'qitish mazmuni umumiy va xususiy bo'lishi mumkin. Mamlakatimiz o'rta maktablari uchun mavzular, malakalar va til materiallari minimum ilmiy-metodik mezonlarga binoan tanlanadi. Chet tili o'qitish sharoitiga ko'ra bajariladigan bunday metodik tadbir tashkiliy kompressiya deyilishi mumkin.

Hozirgi davrda xorijiy tillarni o'rganish va bilishning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Har bir soha vakili yetuk mutaxassis bo'lishi uchun o'z ona tilidan tashqari, dunyo tillaridan ham xabardor bo'lishi kerak. Chet tili o'rganishni ommalashtirish bugungi ta'lim tizimidagi ustuvor maqsadlardan biriga



aylanmoqda. Buning samarasi esa hozir butun mamlakat bo'ylab yoshlar orasida til o'rganishga bo'lgan qiziqishning keskin ortib ketganida yaqqol yuzaga chiqdi. Ta'lim sohasidagi bu sa'y harakat xorijiy tillarda tahsil olish va o'qitishda duch keladigan har qanday masalalarni hal etib, dunyo miqyosida vatanimiz ravnaqini ko'rsata oladigan ilm-fan, ta'lim va taraqqiyot nufuzini ko'tarishga o'zining salmoqli hissasini qo'shadi. Ayni damda yurtimizdagi ta'lim sohasini tubdan chet tillarga tadbiiq qilish maqsadida taqdim etilayotgan darsliklar, o'quv qo'llamalari ham ayni shu maqsadning amaliy isbotidir. Shuningdek, yurtimizda til o'rganishga bo'lgan e'tibor nuqta nazaridan oladigan bo'lsak, aynan yaqin 5-10 yil ichida misli ko'rinmagan ishlar amalga oshirildi va buni siyosat darajasiga olib chiqishdi va o'z o'rnida xorijiy tillarni o'rganishga oid bir qator qaror va farmonlar ishlab chiqildi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnologiyalar asosida chet tillarni o'rganish orqali butun dunyo hamjamiyatida vatanimizni O'zbekistonning alohida o'rnini ta'minlash va uni yanada kengroq tadbiiq qilish uchun ham xorijiy tillarni o'rganish dolzarb va muhim hisoblanadi. O'zbekistonni dunyo xalqlari orasida yanada o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minlashda yoshlarning va ular o'rgayanayotgan xorijiy tillarning o'rnini beqiyos sanaladi. Buni yanada mustahkamlash uchun esa til bamisoli ko'priq vazifasini o'tab beradi. Bundan tashqari, barcha bilimlarni o'zlashtirish uchun mashq eng yaxshi usul hisoblanadi. Mashq nafaqat chet tili ta'limida balki barcha soha bilimlarini o'zlashtirishda ham ijobiy natija beradi. Darsni samarali tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarining o'rnini beqiyosdir. Chet tili o'rganish jarayonini kommunikativlikka yondashgan holda tashkil etish, madaniyatlararo muloqat darajasiga yetkazish lozimdir. Chet tilini o'rganish jarayonini natijaviy tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlarni egallash lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. J. Jalolov "Chet tili o'qitish metodikasi", Toshkent-2012
2. Yo'ldoshev I. Muhammedova S. Sharipova O'., Majidova R. - "Tilshunoslik asoslari"
3. N. Uloqov "Tilshunoslik nazariyasi" - Toshkent
4. Jeyn Jekson "Globallashuv va aloqadagi til: masshtab, migratsiya va kommunikativ amaliyotlar"
5. 2012-yil 10- dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1875-qarori
6. B. Juraboyev "Problems and solutions for online teaching and learning foreign of languages"